



**YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA  
MAKTABDAGI HARBIY TAYYORGARLIKNING SAMARADORLIGI**

**Egamberdiyev Ilxomjon Yigitaliyevich**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Mirzanov Sardor Umarqul o'g'li**

*Harbiy ta'lim fakulteti II- bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada mamlakat mudofaa tizimining samaradorligini ta'minlashda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Yosh avlodni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, jismoniy va psixologik bardoshlilikni shakllantirishda mazkur bo'g'inning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, chaqiruvga qadar tayyorgarlikning metodologik jihatlari, ta'lim muassasalari va davlat-harbiy tashkilotlar hamkorligi, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishning imkoniyatlari ilmiy jihatdan izohlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *mudofaa tizimi, chaqiruvga qadar tayyorgarlik, vatanparvarlik, metodologiya, yoshlar tarbiyasi, jismoniy tayyorgarlik.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируется роль этапа предварительной подготовки перед призывом в армию в обеспечении эффективности системы обороны страны. Освещается значение данного звена в подготовке подрастающего поколения к военной службе, укреплению в нем патриотического духа, формировании физической и психологической выносливости. Также научно объясняются методологические аспекты допризывной подготовки, сотрудничество образовательных учреждений и государственно-военных организаций, возможности внедрения передового зарубежного опыта.*

**Ключевые слова:** *система обороны, допризывная подготовка, патриотизм, методика, воспитание молодежи, физическая подготовка.*

**Abstract.** *In this state, the role of the stage of preliminary preparation before enlistment in the army and ensuring the effectiveness of the system of defense is analyzed. Osveshchaetsya znachenie dannogo vena v podgotovke podrastasyushchego pokolenia k voennoy slujbe, ukreplenii v nem patrioticheskogo dukha, formirovanii fizicheskoy i psixologicheskoy vinslivosti. Takje nauchno ob'yasnyayutsya metodologicheskie aspekti doprizyvnoy podgotovki, sotrudnichestvo obrazovatelnyx uchrejeniy i gosudarstvenno-voennyx organizatsiy, vozmojnosti vnedreniya peredovogo zarubejnogo opyta.*

**Key words:** *defense system, doprizyvnaya training, patriotism, methodology, youth education, physical training.*

Mamlakat xavfsizligi va mustaqilligi har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning Vatanga bo'lgan sadoqati, tayyorgarligi va ongli fuqarolik pozitsiyasiga bevosita





bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tizimi nafaqat yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, balki ularning qalbida yurtga muhabbat, fidoyilik va ma‘suliyat hissini tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining mudofaa siyosatida harbiy-vatanparvarlikni mustahkamlash, yoshlarni harbiy xizmatga tayyor va intellektual jihatdan yetuk qilib tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi globallashuv, axborot xuruji va mafkuraviy tahdidlar fonida, yoshlarda ongli vatanparvarlikni shakllantirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatning barqarorligi va mustaqilligi uning mudofaa tizimining kuchi bilan chambarchas bog‘liq. Kuchli mudofaa tizimi nafaqat harbiy texnika va zamonaviy qurollanish darajasi, balki inson resurslarining tayyorgarlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, chaqiruvga qadar bo‘g‘in — ya‘ni umumiy o‘rta va professional ta‘lim muassasalarida olib boriladigan boshlang‘ich tayyorgarlik mashg‘ulotlari mudofaa tizimining muhim poydevori hisoblanadi. Bu bosqich yosh avlodni nafaqat harbiy xizmatga, balki hayotiy sinovlarga ham tayyorlaydi, ularda mas‘uliyat, intizom, jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tashkil qilish va olib borishda tarbiyaviy ishlar milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirish muhim sanaladi. Bu esa yoshlarni harbiy xizmatga nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy jihatdan ham tayyorlaydi. Shuningdek, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi yoshlarning psixologik tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Harbiy xizmat sharoitida intizom, stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish, tezkor qaror qabul qilish, jamoada hamkorlikda harakat qilish kabi psixologik fazilatlar talab qilinadi. Bu ko‘nikmalarni maktab va kollej davrida shakllantirish mudofaa tizimi uchun tayyor kadrlar zaxirasini tashkil qiladi.

Mudofaa tizimini mustahkamlashda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tizimi orqali – o‘quvchi yoshlarni jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari, sport musobaqalari, dala o‘quv yig‘inlarida yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, chidamlilik va bardoshlilik sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom va chiniqqan yoshlar esa harbiy xizmatni yengilroq o‘taydi, mudofaa tizimining ishonchli bo‘g‘iniga aylanadi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlashda nafaqat yoshlarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshiradi, balki ularni ijtimoiy jihatdan mas‘uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishda ham muhim hisoblanadi. Harbiy xizmatga bormasdan avval o‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy ongi va fuqarolik burchiga munosabati shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar yoshlarning ongida davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitlikni saqlash mas‘uliyati faqat harbiylar zimmasidagi vazifa emas, balki har bir fuqaroning burchi ekanini anglashlariga xizmat qiladi.

chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tizimi mamlakat mudofaa strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi bejiz emas. Chunki zamonaviy xavfsizlik sharoitida






## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

nafaqat tashqi, balki ichki tahdidlarga ham tayyor bo'lish talab qilinadi. Yoshlarning bu kabi holatlarga tayyorligi, tezkor reaksiya ko'rsatishi, intizomga amal qilishi jamiyatning umumiy xavfsizlik darajasini oshiradi. Bu borada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlarida fuqarolik mudofaasi, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, yong'in xavfsizligi, texnogen ofatlar chog'ida evakuatsiya qoidalarini o'rgatish metodologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Mudofaa tizimidagi yana bir muhim vazifasi - yoshlar ongida milliy birlashuv va hamjihatlik ruhini mustahkamlashdir. Harbiy xizmatning mohiyati jamoa bo'lib harakat qilish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, qiyin vaziyatda hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat. Shu boisdan, o'quv mashg'ulotlarida jamoaviy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan topshiriqlar, saf o'yinlari, guruhli mashqlar katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat yoshlarni kelgusida armiyaga tayyorlaydi, balki ularni fuqarolik jamiyati sharoitida ham ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan virtual simulyatsiyalar, interaktiv platformalar, multimedia darslari yoshlarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni real sharoitlarga yaqinlashtiradi. Bu orqali yoshlar nafaqat nazariy bilimni o'zlashtiradilar, balki uni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Eng asosiysi, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va fidoyilik ruhini singdiradi. Harbiy xizmatga borish masalasi ko'pincha yoshlar orasida qo'rquv yoki tashvish uyg'otishi mumkin. Ammo ta'lim muassasalarida olib boriladigan bosqichma-bosqich tayyorgarlik jarayoni bu qo'rquvni ijobiy motivatsiyaga aylantiradi. Natijada, yoshlar harbiy xizmatni faqat majburiyat emas, balki sharaf va iftixor deb bilishga o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlashda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik roli beqiyosdir. Bu bosqich yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda vatanparvarlik va ma'naviy immunitetni kuchaytirish, jismoniy va psixologik bardoshlilikni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tayanch vazifasini bajaradi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samarali tashkil etilsa, davlat mudofaa tizimi uchun malakali, sog'lom va sadoqatli kadrlar zaxirasi yaratiladi. Shu bois ta'lim muassasalari, davlat va harbiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zamon talabi hisoblanadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. THE IMPORTANCE OF INCREASING AND DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF STUDENT MILITARY EDUCATION STUDENTS //Archive of Conferences. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 98-99.

2. Usmonov Adxam Abdulhamid ovich. "The role of social pedagogy in the development of feelings of love for the motherland and patriotism in students and schoolchildren." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 171-174.

3. Khanimkulov Anvar Rahimkulovich. DEVELOPMENT OF MILITARY PATRIOTIC TRAINING OF STUDENTS OF PRE-SERVICE MILITARY EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. 3<sup>rd</sup> International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia <https://conferencepublication.com> May 31st 2021.

4. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 11-13.

